


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**70411801- Menejment**  
*magistratura mutaxassisligining*

***MALAKA TALABI***

**Toshkent-2024**



**ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil "01" 08 dagi 277 – sonli buyrug'i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	6
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	6
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar .....</b>	<b>8</b>
<b>3.</b>	<b>Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar .....</b>	<b>9</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	<b>10</b>
	<b>Bibliografik ma’lumotlar .....</b>	<b>11</b>
	<b>Kelishuv varag‘i.....</b>	<b>12</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

70411801 – Menejment mutaxassisligi bo'yicha magistlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talablari 70411801-Menejment mutaxassisligi bo'yicha magistlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur mutaxassislik bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

mutaxassislikning o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

70411801-Menejment – ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi mutaxassislik bo'lib, u o'z ichiga tarmoqlar va sohalar korxonalari, tashkilotlar, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarida mehnat faoliyatini tashkil etish, ishlab chiqarishni va xizmat ko'rsatishni tashkil etish, bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash, yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish bo'yicha ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishning faoliyat ko'lamini qamrab oladi.

#### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

70411801-Menejment magistrlar kasbiy faoliyatining ob'ektlari: oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

turli mulkchilik shaklidagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari;

iqtisodiyot tarmoqlari uchun fundamental tadqiqotlar, amaliy tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik ishlari;

iqtisodiyotning tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, korporatsiyalar, konsernlar, xolding, ishlab chiqarish birlashmalarini rivojlantirish, korxonalar va kompaniyalar iqtisodiy faoliyatini tashkil etish va boshqarish;

korxonada innovatsion loyihalarni rejalashtirish va boshqarish;

kompaniya, korxonalar tashkiliy tuzilishining optimal variantlarini tanlash;

kompaniya, korxonalar boshqaruv tizimini loyihalashtirish;

boshqaruv tizimining turli pog'onalarida vakolatlar va vazifalarni taqsimlash;

korxonalar, tashkilotda mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

boshqaruvda tizimli yondashuv tamoyillarini tadbiq etish;

ijtimoiy ta'minot tizimini tashkil qilish va boshqarish faoliyati;

fan va ta'lim muassasalarini faoliyatini boshqarish;

aholini bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini tashkil etish va boshqarish;

ijtimoiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish;

inson resurslarini boshqarish tizimi;

ijtimoiy soha korxonalarining ijtimoiy siyosatini ishlab chikish va amalga oshirish jarayonlari;

korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

aniq iqtisodiy loyihani bajarish uchun tashkil etilgan jamoa va guruhlarini tezkor ravishda boshqarish;

ishlab chiqarish tarmoqlari va industrial tarmoq korxonalariga investitsiyalarni jalb etish loyihalarini ishlab chiqish va uni boshqarish;

korxonalarining rivojlanishi strategiyasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi;

korxonalarda mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish;

ishlab chiqarish va noishlab chiqarish korxonalarini faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy iqtisodiy bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;

iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarining rivojlanish jarayonlari;

dasturiy ta'minot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan korxonani boshqaruv tizimida foydalanish;

tashkilotlarning umumiy ta'riflari va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash;

tashkilotni boshqarishning ratsional tizimini ishlab chiqish;

tashkilot faoliyati samaradorliini uning insoniy resurslari samaradorligini oshirish yo'li bilan yuksaltirish;

tashkilotlar iqtisodiy holatini tahlil qilish, firmalar, kompaniyalar faoliyatiga va ularning personaliga ta'sir o'tkazish usullarini qo'llash;

mehnatni boshqarishni innovatsion tamoyillar asosida qayta qurish;

**1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

*ilmiy tadqiqot faoliyati;*

*pedagogik faoliyat;*

*ishlab chiqarish-texnologik faoliyat;*

*tashkiliy-boshqaruv faoliyati;*

*loyihalash-konstruktorlik-texnologik faoliyati;*

*konsalting xizmati faoliyati.*

**1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

70411801 – Menejment ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, echilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

**Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:**

namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish;

ishlab chiqarish faoliyati natijalari bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalanish va monitoringini olib borish;

fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tadbiq etish;

iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

amaliy faoliyatda instrumental vositalarni va ishlab chiqarish muhitini takomillashtirish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanib ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

bajarilayotgan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish, o'z ishining natijalarini baholash;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;

kasbiy etika kodeksiga rioya qilish *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.*

### **Loyihalash-konstruktorlik-texnologik faoliyatida:**

bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqishi va tadqiq qilishi;

tarmoqlar va sohalarda namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqishi;

ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish malakalariga ega bo'lishi;

iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari korxonalariga yangi innovatsion loyihalar va texnologik jarayonlarni tatbiq qilinishini tashkil qilish *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.*

### **Konsalting xizmati faoliyatida:**

iqtisodiy faoliyat sohasida mavjud holatning tahliliy sharhini ishlab chiqish;

iqtisodiy faoliyat sohasida mutaxassislikka mos bo'lgan mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida rais (ishtirokchi) sifatida qatnashish;

mutaxassislikka mos mavzular bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish *qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.*

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan foydalana olish, axborotlashgan jamiyat sharoitida raqamli iqtisodiyotning mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji

xavfi va tahdidlarini anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

## **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lish;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lish;

tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

o'zining individual bilimlariga tayangan holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi;

fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lishi;

kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

tashkilotlarning umumiy ta'riflari va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash;

tashkilotni boshqarishning ratsional tizimini ishlab chiqish;

tashkilot faoliyati samaradorliini uning insoniy resurslari samaradorligini oshirish yo'li bilan yuksaltirish;

tashkilotlar iqtisodiy holatini tahlil qilish, firmalar, kompaniyalar faoliyatiga va ularning personaliga ta'sir o'tkazish usullarini qo'llash;

mehnatni boshqarishni innovatsion tamoyillar asosida qayta qurish;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi lozim.



### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Magistrlar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – mutaxassislik ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ilmiy faoliyat – ixtisoslik va umumkasbiy fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Ilmiy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli ilmiy-tadqiqot va amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyot o'tkaziladi:

1. Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti
2. Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash

## 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>			
1.01	RESMET105	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	150	5	1
1.02	METTSD105	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	150	5	1
1.03	SYSMT105	Tizimli menejment nazariyasi	150	5	1
1.04	RESMAN105	Menejmentning tadqiqot usullari	150	5	1
1.05	EDUMAN105	Ta'lim menejmenti	150	5	2
1.06	COMMAN105	Taqqoslama menejment	150	5	2
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	<b>2,3</b>
<b>2.00</b>		Tanlov fanlar	<b>900</b>	<b>30</b>	<b>2,3</b>
	<b>Kvalifikatsiya</b>	<b>Menejer (pedagog-tadqiqotchi)</b>			
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti	600	20	1,2,3,4
		Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	1200	40	1,2,3,4
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, uqib-o'rganish natijalari, o'quv davri menejment, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQUILGAN:**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**  
**Rektor** T.Z. Teshabayev

2024 yil " 06 " 06



**KELISHILDI:**

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar**  
**vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni**  
**rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

**Direktor** M.R. Boltabayev

2024 yil " 25 " 06

M.O'.



**Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat**  
**instituti**

**Rektor** D. Vaxabov

2024 yil " 19 " 06

M.O'.



**"O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi**  
**boshqaruvi**

**Rais** M.M. Sultonov

2024 yil " 20 " 06

M.O'.



**"O'zbekiston marketing uyushmasi"**  
**boshqaruvi**

**Rais** D.A. Mirzaaxmedov

2024 yil " 21 " 06

M.O'.

